

**Nazirjon Toshtemirov**

**ORZULAR KAMALAGI**

*Hikoyalar va she'rlar*

**MAJBURIY NUSXA**

Toshkent  
"Yangi kitob"  
2016

Ўзбек адабиёти

UO'K: 821.512.133 - 1

KBK: 84(50')7

**T 71** Toshtemirov, Nazirjon

Orzular kamalagi [Matn] : hikoyalar va she'rlar / N. Toshtemirov /

– Toshkent : Yangi kitob, 2016. – 32 b.

ISBN 978-9943-4555-2-8

UO'K: 821.512.133

KBK: 84(50')7

*Yosh ijodkor Nazirjon Toshtemirovning misralarida samimiyat bor. Uning yozganlarini o'qib, shunga amin bo'lasiz. Zero, samimiyat, shavq-zavq ijodkorga ilhom baxsh etadi. Yuksak orzular esa nurlil manzillar sari yetaklaydi. Buning hosilasi o'zining rangorang kamalagiga ega bo'lish, ajib dunyoni kashf etishdir.*

*Umidli qalamkash Nazirjon Toshtemirov ijodidan bahra oling, azizlar.*

**Taqrizchilar:**


Anvar Obidjon,

O'zbekiston xalq shoiri,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,

Abduqayum Yo'ldoshev,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.



XP

ISBN 978-9943-4555-2-8.

© N. Toshtemirov. «Orzular kamalagi»

© «Yangi kitob» MChJ, 2016

## SO‘Z BOSHI

O‘g‘limiz Nazirjon Toshtemirov adabiyotimizda hikoyachilik janrini rivojlantirgan, bu janrga yangi-yangi holatlar olib kirgan O‘tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzaev, O‘ktam Usmonov singari ustozlar yo‘lidan borib, yangi so‘z aytgisi, yangi fikr bildirgisi kelibdi. Bu yaxshi, albatta. Nazirjonni tabriklash kerak, tabriklayman.

Uning to‘rt hikoyasida bir-birini to‘ldiradigan to‘rt xil chiroyli, axloqiy yo‘nalish bor. Masalan: “Do‘stlik” hikoyachasi ixchamgina bo‘lib, o‘n uch yashar bola darajasida do‘stlikni qadrlashga, ulug‘lashga chaqiradi. “Yaxshilikni kattalardan o‘rgandim”da esa, bolaning, to‘g‘rirog‘i, o‘smirning dunyoqarashida o‘zgarishlar ro‘y bergani, yaxshilik orqali inson kamolga yetishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Kim yaxshilik qilsa, o‘zgalar oldida hurmati baland bo‘lishini ta‘kidlaydi. “Ustoz” hikoyasida ham yosh havasmand ijodkorning boshqalarga aytadigan chiroyli so‘zi, chiroyli fikri bor.

Qolgan hikoyalarda ham ana shunday ruh seziladi. Ularda inson yaxshilik uchun tug‘ilgan, yaxshilik qilishi kerak, degan fikrlar ta‘kidlanadi. Nazirjonning she‘rlari ham o‘ziga xos. Uning qalami yildan-yilga charxlanayotgani seziladi.

Yozuvchi o‘g‘limizning hikoyalari haqida yana bir gap aytgim kelyapti. Nazirjondan hikoyalarda jonlantirish, obraz yaratish singari hikoyachilik uchun zarur bo‘lgan holatlar ustida ancha izlanishi talab qilinadi. Gap fikr topishda emas, topilgan fikrni chiroyli bayon qilish ham zarur.

O‘g‘limiz Nazirjonga muvaffaqiyatlar tilab, ustozlardan o‘rganishni to‘xtatmasligi, mashq va yana mashq qilishini maslahat beraman.

*Xudoyberdi To‘xtaboyev,  
O‘zbekiston xalq yozuvchisi,  
O‘zbekiston Davlat mukofotining sovrindori*

## ≡ Hikoyalar ≡

### DO'STLIK

Yozning issiq kunlari o'tib, betakror kuz go'zalligini ko'z-ko'z qila boshladi. Quyoshning zarrin nurlari esa daraxtlar barglarini turfa ranglarda jilvalantirib, inson qalbiga allanechuk iliq tuyg'ularni olib kiradi.

Shunday kunlarning birida Nosirjon tabiat qo'ynida sayr qilib kelish uchun do'sti Akmalning uyiga bordi. Akmal hovlining bir chetiga tovuqlari uchun katak qurishga hozirlik ko'rayotgan ekan. U loy tekkan qo'lini chelakdagi suvda yuvib tashladi-da, do'stiga peshvoz chiqdi.

– Kel, Nosirjon, – dedi Akmal unga qo'lini uzatib.

Do'stlar samimiy ko'rishdilar. Nosirjon uni ishdan qo'ygani xijolat bo'lib dedi:

– O'rtoq, seni ishdan chalg'itdim.

– Ish qochmas, – kulimsiradi Akmal.

– Ikkimiz bir tabiat qo'yniga chiqib sayr qilib kelamizmi, degandim. Qarasam band ekansan.

– Mayli, sayr qilish bo'lsa boraveramiz, – dedi Akmal. – Lekin avval tovuqlarga katak qurib olayin.

– Ikkalamiz birga ishlaymiz, – yeng shimardi Nosirjon. – Ana shunda unumli bo'ladi va tez tugatamiz.

Do'stining gapidan Akmal xursand bo'ldi. Har tugul ikkita qo'ldan to'rtta qo'l yaxshi-da! Ish tez bitadi.

Ha, do'stining mehnatdan qochmay og'irini yengil qilayotganidan Akmal mamnun edi.

Bu paytda Akmalning oyisi non yopish uchun tandir yonida kuymalanayotgandi. U tandirdagi olovni kosov bilan titkilar ekan, bolalarga qarab dedi:

– Voy polvonlar-ey, kap-katta bolaga aylanib bir-birlaringga yordam beradigan bo'libsizlar-da. Do'stlar mana shunday bir-birining og'irini yengil qilib turishi kerak. Do'stlik shu tariqa mustahkamlanadi.

Ikki do'st u yoq-bu yoqdan gurunglashib ishlagach, tovuqlar uchun ixchamgina katakni bitirib ham qo'ydi. Bu vaqtda Akmalning oyisi issiqqina nonlarni tandirdan uzib savatga solgan, bolalarga choy damlashga kirishgan edi. Uning ovqat tayyorlashga hozirlik ko'rayotganini ko'rgan Nosirjon dedi:

– Xola, ovora bo'lmang, biz Akmal bilan tabiat qo'ynida sayr qilib kelmoqchi edik.

Akmalning oyisi tovuqlar uchun qurilgan katak atrofida aylanib xursandchiligini yashira olmadi.

– Voy pahlavonlar-ey! Binoyidek katak quribsizlar-ku! Baraka topinglar. Do'stligingizga aslo ko'z tegmasin, bolalarim. Doimo mehr-oqibatli bo'linglar. Chin do'stligingiz aslo buzilmasin, – deya uzoq duo qildi.

2012-yil

## YAXSHILIKNI KATTALARDAN O'RGANDIM

Haftaning oxirgi kunlari edi. Oyim erta tongda uy yumushlarini yakunlab bo'lib, uyimizdan to'rt bekat naridagi tuman markazida joylashgan soliq idorasiga yo'l oldi. Shoshilayotgani bois meni apil-tapil kiyintirib maktabga tashlab o'tmoqchi bo'ldi.

Oyim oq ko'ylagim ustidan qora kostyumimni kiydirar ekan, qovog'ini silab:

– Qovog'im uchyapti, yaxshilikka bo'lsin-da, – deb qo'ydi.

– Oyijon, qovoq uchsa nima bo'ladi? – so'radim men poyafzalimning bog'ichini bog'lar ekanman.

– O'g'lim, shoshib turibman, – dedi oyim. – Ishlarimni bitirib qaytay, kechqurun bu haqda senga batafsil gapirib beraman. Hozir tezroq yo'lga chiqaylik.

Ikkimiz birga ko'chaga chiqdik. Oyim meni maktab darvozasidan ichkariga kirgizib yuborib, o'zi bekat tomonga shoshilganча ketdi.

Qishning ayni izg'irinli kunlari edi. Sovuq odamning

suyak-suyagidan o'tib ketadigan paytlar... Dadam mana shunday izg'irin kunda tut ko'chatlari ekilgan ekin maydonimizni ko'zdan kechirish uchun dalaga chiqib ketgan.

Shu kuni oyim shahardagi ishlarini yakunlab bo'lgach, qo'shni qishloqqa, ya'ni bobom bilan buvimlarni ko'rib kelish uchun soliq idorasidan to'ppa-to'g'ri ularnikiga o'tib ketgan ekan. Biroq hali yetib bormay turib yo'l yarmida bobomni ko'rib qolib mashinadan tushibdi. Bobomning avzoyi yaxshi emasligini sezgan oyim shosha-pisha so'rabdi:

– Dada, nima gap, tinchlikmi?

Oyim gapini yakunlab ulgurmasidan bobomning ko'zlaridan yosh sizib chiqib, tomog'iga nimadir tiqilib qolgandek sira gapirolmabdi.

– Nima bo'ldi, dada? Rangingiz bir ahvolda. Tinchlikmi? – deya xavotir ichida so'rabdi oyim.

– Singlingni poytaxtda mashina urib yuboribdi. Ahvoli og'ir ekan, – bo'g'iq ovozda gapiribdi bobom.

Oyim yig'lab yuboribdi.

– Sen ham biz bilan Toshkentga borsang-chi! Kuyov nima der ekan? – deya xijolatomuz so'rabdi bobom.

– U kishiga vaziyatni tushuntirsam ruxsat beradilar, – javob beribdi oyim.

– Unday bo'lsa shoshil. Tezda uyingga borib kuyovdan ruxsat olib kel, men mashina gaplashaman.

Shu suhbatdan so'ng oyim uyga qaytib, dadamdan ruxsat so'radi. Vaziyatni to'g'ri tushungan dadam tezroq yo'lga o'tlanishi kerakligini aytdi.

Kunduzgi soat ikkilarda bobom, buvim va oyim Toshkentga jo'nab ketishdi.

O'sha kuni dadam ikkimiz uyda ularning dovondan eson-omon o'tib olishlari va qo'ng'iroq qilib, "Biz Toshkentga yetib keldik" degan so'zlarini eshitish uchun allamahalgacha uxlamadik. Oyim tungi soat o'n ikkilarda qo'ng'iroq qildi. Xolam kasalxonada uch kundan buyon hushsiz yotgan ekan. Bu haqda eshitganimizdan so'ng uyqumiz battar qochdi. Ko'zlarimga yosh quyilib kelaverdi. Tun yarmidan oshgandagina uyquga ketibman.

Ertalab turgach, dadam nonushta tayyorladi. Ikkinchi dasturxon atrofida g'amgin ahvolda choy ichdik. Men ilk bora oyimning yordamisiz kiyinib maktabga jo'nadim. Dadam esa har kungidek dalaga yo'l oldi.

Shu ikki kun ichida boshimizga yana og'ir musibatlar tushdi. Mening ko'p narsaga aqlim yeta boshlagan edi. Ro'y berayotgan xunuk voqealar qarshisida yanada ulg'ayib qolayotganga o'xshardim. Shu kuni ilk bora dadamning ko'zlarida yosh ko'rdim.

Kunduzi soat o'n birlar atrofida kichik amakim hovlimizdan olov chiqayotganini ko'rib, jon holatda uyimiz tarafga qarab yugurgan. Keyin tomi va deraza romlari alanga ichida qolgan imoratning qarshisida dod-voy solib odamlarni yordamga chaqirgan. Yon-atrofimizda yashaydigan qo'shnilarimiz shu tomonga qarab oshiqishgan. Kimdir chelaklab suv tashigan, kimdir o't o'chiruvchilarni chaqirish bilan ovora. Xullas, mahalla ahli toki o't o'chiruvchilar yetib kelguniga qadar olovni bir qadar o'chirishga muvaffaq bo'lishdi.

Ko'z o'ngimda yuz bergan bir voqea sira xayolimdan ketmaydi. O'shanda kimlardir uyimizning qay tarzda yonayotganini tomosha qilib zavqlanishgan edi. Uzoqda turib bunday dahshatli voqeaga kulib nazar tashlaganlar ham bo'ldi. Hartugul bizga ich-ichidan rahmi kelib, yuragi ezilganlar soni bu tomoshabinlarnikidan ko'p edi.

O'n besh kun ichida qarindosh-urug'lar va mahalla-ko'y birgalikda uyimizni qayta tiklab berishga harakat qilishdi. Ularning bir yoqadan bosh chiqarib, bizga qilgan g'amxo'rliklari tufayli uyimiz oldingisiga qaraganda chiroyliroq tarzda qurib bitkazildi. Dunyoda shunday insonlar borki, tog'dek yaxshilik qilsalar ham minnat qilmaydilar, ularning bir ko'zi bilgan sirni ikkinchisi bilmaydi. Ammo ayrim insonlar ham borki, o'zgalarning baxtsizligini ko'rib zavqlanadi.

O'sha mudhish voqeadan so'ng dilimda shunday bir niyat paydo bo'ldi.

## Nazirjon Toshtemirov

– Birovning og'ir ahvolidan zavqlanadigan odam hech qachon yaxshi nom olmaydi. Men katta bo'lganimda insonlarga faqat yaxshilik qilaman.

Bu niyat dilimda o'z-o'zidan paydo bo'lmadi, albatta. Mudhish voqeadan so'ng dadam ich-ichidan ezilsa-da, hech kimga nolimadi. Oyim ham tunlari uxlamay ko'z yoshi to'ksa-da, dilidagini tiliga chiqarmay, kun bo'yi uy yumushlari bilan o'zini andarmon qilib yuraverdi. U kishi deyarli har kuni erta tongda uyg'onganida qayta-qayta tayinlardi:

– Bolam, hech qachon hech kimga yomonlik qilma. Chunki har birimiz bu dunyoda mehmonmiz. Insondan faqat mehr-oqibat va yaxshi nom qoladi.

Men oyimning o'g'itlari tufayli inson qalb sirlarini hech qachon o'zga kishiga yormasligini, chunki botinida saqlay olmagan sirini o'zgalarga saqlay olmasligini tushunib yetdim.

*2012-yil*

## USTOZ

Kunning qoq yarmi. Men tushlik qilish uchun ayvonga – chorpoyaga ko'rpachalar solayotgandim. Eshik oldi – ayvon. Uyimiz ayvonga ulab qurilgan. Shu payt hovlidagi yong'oq daraxtiga bitta qora qarg'a qo'nib olib, tinmasdan qag'illay boshlasa bo'ladimi! Tosh otib uni uchirib yubordim.

Oyim kosalarga quyilgan mastavani dasturxonga endigina keltirgan ham ediki, darvozadan sinfdoshim Umid kirib keldi. Uning yuziga qarab, tinchlik emasligi, nimadandir qattiq tashvishga tushganini sezdim. Umid lablari titrab, ko'ngilsiz bir xabarni aytolmay piq-piq yig'lay boshladi.

– Nima gap, tinchlikmi? – so'radi oyim.

– Sinf rahbarimiz Charos opani shahardagi shifoxonadan qaytarib yuborishibdi. Ahvoli og'ir emish. Shifokorlar bir-ikki kunlik umri qolgan, deyishibdi, – dedi Umid bo'g'iq tovushda. U oxirgi so'zlarini aytayotganida o'pkasi to'lib, ovozi boricha yig'lab yubordi.



Men bu xabardan toshdek qotdim.

– Nima uchun?! Nega qaytarib yuborishadi? – deya oyimga zorlanib qaradim.

Oyim chuqur xo'rsinib olgach dedi:

– Ustozingning ahvoli hech ham og'ir emas. Xavotir olma, unga tog'da o'sadigan maymun quloq o'simligining ildizini damlab ichirishsa, tezda sog'ayib ketadi. Bu o'simlik har qanday kasalga davo bo'ladi, deb eshitganman.

Oyimning gaplari qulog'imga kirmadi. Uydan otilib chiqdim. Orqa, oldimga qaramay mahalla boshidagi, bozorda zira sotadigan Ilhom amakining uyi tomon yugurib ketdim.

Charos opa bir oydan buyon maktabga kelmayotgandi. Bizga Mahfuza opa ismli ustoz sinf rahbarlik qilmoqda. Qishloqdoshlar aytishicha, Charos opaning oshqozonida qandaydir o'simlik o'sayotgan emish. Uni shifokorlar "rak" deb atashar ekan.

Charos opa bizni maktabga ilk qadam qo'ygan kunimiz qabul qilib olgan va o'qish-yozishni o'rgatgan. To'rt yildan buyon u kishi biz bilan birga edi. Charos opani barchamiz yaxshi ko'ramiz.

Ustozim haqida xayol surgancha Ilhom amakining uyi-ga yetib kelganimni ham payqamabman. Temir darvozani taqillatishdan oldin bir nafas to'xtab, ko'z yoshlarimni tit-rayotgan qo'llarim bilan artib tashladim.

– Ustozimga yordam berishim kerak! – dedim-da, darvozani ohista chertdim.

Baxtinga ichkaridan Ilhom amakining o'zi chiqib keldi. Unga duduqlanib, "Amaki, agar toqqa zira olib kelish uchun borsangiz maymun quloq degan o'simlikning ildizidan ham olib keling", – deya bu yerga kelishimning sababini tushuntirdim.

– Maymun quloqning ildizini nima qilasan? – hayron bo'lib so'radi Ilhom amaki.

– Ustozimiz Charos opa rak bo'lib qolibdi. Mana shu ildizni damlab ichirsam, sog'ayib ketarkan.

## **Nazirjon Toshtemirov**

---

Ilhom amaki menga g'amgin tikilganча dedi:

– Ertaga toqqa boraman. Qaytishda ustozing uchun maymun quloqning ildizidan albatta olib kelaman.

Bu gapdan xursand bo'ldim. Rahmat aytib ortimga o'g'irilar ekanman, Ilhom amakining shivirlab aytgan gaplarini eshitib qoldim:

– Koshki edi Charosni birgina maymun quloq ildizi bilan davolab bo'lsa! Tog'dagi barcha maymun quloq o'simligini ildizi bilan sug'urib kelgan bo'lardim.

Men Ilhom amakiga qaradim. U aytgan gapidan uyalib yuzlari qizardi. Men hech nima demay ustozimning uyi tomon oshiqdim.

Ertaga Ilhom amaki o'sha ildizni olib keladi. Nasib qilsa ustozim sog'ayib ketadi.

Charos opaning uyidan bir nechta sinfdosh qizlar chiqib ketishayotgan ekan. Men ovoz chiqarmay yig'lardim. Ular meni ko'rishlari bilan o'zlarini tutolmay yig'lab yuborishdi. Men qizlarning yonidan o'tib, ustozim yotgan xona tomon yurdim. Eshik ochilishi bilan Charos opa yostiқdan boshini ko'tardi. Ko'zlarimga tikilib jilmaydi. Ko'zlari yoshlanganini ko'rib, yig'lagim keldi.

– Meni kechir, – dedi Charos opa. – Mana shu chorakda senga besh baho qo'ymoqchi edim, maktabga bora olmaydiganga o'xshayman. Lekin sen xafa bo'lma, o'rnimga dars o'tayotgan ustozingga tayinlayman, bu chorakda senga, albatta, besh baho qo'yadi. Sen so'nggi oylarda ancha o'zgarding. Bilim olishga bo'lgan intilishing yaxshi. Buning uchun seni rag'batlantirishimiz kerak.

Quloqlarimga ishonmadim. Shu gaplarni qattiqqo'l ustozim gapiryaptimi? Yo'q, bo'lishi mumkin emas! U kishi ko'zimga o'zgarib qolganday ko'rindi.

Men ustozimning yonida biroz o'tirmoqchi edim. Charos opa menga tikilganча qaddini rostlab, devorga suyandi. Biroq tezda holdan toyib, yostiқqa boshini qo'ydi.

– Endi uyingga ketaversang ham bo'lardi, – dedi Charos opa charchab qolgan odamdek hansirab.

Men qimir etmadim. Ustozimning yonidan ketgim kelmasdi. Buni ko'rib ustozim xuddi dars paytidagidek qat-tiqqo'llik bilan dedi:

– Ket dedim senga. Eshitmadingmi? Uyingga bor!

Men ustozimning buyrug'iga itoat etib, xonani tark etdim. Hovliga chiqsam, Umid bir chetda ho'ng-ho'ng yig'lab o'tiribdi. Meni ko'rishi bilan alamiga chiday olmay yer tepindi...

Ertasi kuni kechki payt devor ortidan sovuq ovoz eshitildi:

– Mustafoning qizirikiga janozaga!

Men o'tirib qolib, uzoq yig'ladim. Darvozadan kirib kelgan Ilhom amakiga e'tibor ham bermadim. U tog'dan maymun quloqning ildizini olib kelgan edi.

– Ulgurmadingiz, amaki. Nega... nega kech qoldingiz? Hech bo'lmasa ikki soat oldin olib kelganingizda, ustozimiz bizni tashlab ketmas edi. Sizni ko'rgani ko'zim yo'q, keting! Maymun quloqning ildizini ham ko'rgani ko'zim yo'q.

Oyim sochimni silagancha ohista dedi:

– O'g'lim, Ilhom amakingga bunday muomala qilma. Ustozing kattalarni hurmat qilish kerakligini o'rgatmaganmi?

Men nojoiz gaplarim tufayli Charos opaning yomonotliq bo'lib qolayotganini tushundim:

– Meni kechiring, amaki, – dedim Ilhom amakiga. So'ngra oyimga qaradim: – Charos opa yaxshi ustoz edi. U kishi bizga "Hamisha o'zingizdan kattani ham, kichkinani ham hurmat qilinglar", deya o'rgatgan.

Men o'zimni to'xtata olmay yig'lardim...

2015-yil

## **QARZ**

Uyda yolg'iz o'zimman. Dadam barvaqt turib bozorga, oyim esa tut ko'chatlari orasiga ekilgan makkajo'xorimizdan xabar olish uchun dalaga ketgan edi.

G'ira-shira tong pallasi. Ko'chadan odamlarning g'ala-g'ovuri kelar, ora-sira eshik ortida allanimalar shitirlardi. Qo'rquv ichida o'sha ovozlarga quloq tutaman. Yog'och eshigimiz tinmay g'ichirlamoqda. Ko'rpani boshimga tortib oldim. Tong ota boshlagach, asta-sekin yuragimni qo'rquv tark eta boshladi.

Ko'zim endigina ilingan ekan, qulog'imda og'riq boshlandi. Ingrab to'lg'ana boshladim. Tinmay "Oyijon, oyijonim. Voy, qulog'im. Qachon kelasiz?" degan so'zlarni takrorlayverdim.

Daladan qaytib kelgan oyim eshikni ochdi-yu, ingrab yotganimni ko'rib qo'rqib ketdi.

– Senga nima bo'ldi, bolam? – jon holatda so'radi oyim. Oyoq kiyimini tezda eshik yoniga yechib, yonimga keldi.

– Oyijon, qulog'im!

Bu so'zni ingrab aytdim. Oyim shoshib peshanamga qo'lini qo'ydi-da, dedi:

– Issig'ing chiqmayaptimi, ishqilib?

Oyimning atrofimda girdikapalak bo'layotganini ko'rib, battar yig'ladim.

– Hozir, bolam, – taraddudlandi oyim. – Qo'shni kelinini chaqirib kelaman, qulog'ingga sut quysa og'rig'i qoladi. O'g'il bolaning qulog'i og'riganda, qiz tuqqan onaning suti quyilsa, darrov og'riq qoladi, deyishadi.

Og'riq kuchaygani bois yuzim battar burishib ketdi. Shuning uchun oyim ancha vaqtgacha men bilan ovora bo'ldi. Qulog'imga qizdirilgan paxta bosdi. Og'riq biroz pawayganidan so'ng qo'shnimiz Xolida yangani chaqirib kelish uchun ko'chaga yugurdi.

Qancha vaqt o'tganini bilmayman. Eshik ochilib nihoyat oyim Xolida yangani xonaga boshlab kirdi. Men o'rnimdan turib, ularni qarshilamoqchi bo'ldim.

– Yotavering, qo'zg'almang, – dedi Xolida yanga. – Keyin ko'z o'ngimda cho'ntagiga qo'l soldi-da, ro'molchasini chiqarib, peshonasidagi terni artib oldi.

Men Xolida yanga xuddi ukol qiladigandek qo'rquvga tushdim.

– Polvonning qulog'i og'rib qoldimi? Hozir yaxshi bo'lib qoladi-da, – dedi Xolida yanga va yon tomonimdan boshimga egilib, qulog'imga ikki tomchi sut tomizdi.

Oyim tokchada turgan dasturxondan ikkita non olib, Xolida yangamga tutqazdi:

– Oling, kelin, sutingizning haqi.

Xolida yanga oyimning bu ishidan ranjidi:

– Bu nima qilganingiz, opa? Ona sutini ham baholab bo'lar ekanmi? Men ikki tomchi sutimga roziman.

– Olmasangiz bo'lmaydi, singlim. Ona sutining qarzdorligi bor, – dedi oyim va qo'yarda-qo'ymay Xolida yanganing qo'liga ikkita non tutqazdi...

Qiziq, ikki tomchi sutning qarzidan oyim shunchalik qo'rqayotgan ekan, unda men onamdan qanchalar qarzdorman-a!..

2015-yil

## —She'rlar—

### VATAN

Sen borsan-ki, suyukman,  
Dunyoda yagonamsan.  
Men sen bilan tirikman,  
O'zbekiston Vatanim!

Dunyolar ichra tanho,  
Chamanzor O'zbekiston.  
Har yon yashil maysalar,  
Ozod yurtim – hur makon.

Durdonamsan, Vatanim,  
Hamisha obod bo'lg'in.  
Sen borsan-ki, men borman,  
Hamisha ozod bo'lg'in!

2011-yil

### BUVIJON

Yelkasiga opichlab,  
Gar yig'lasam ovutgan.  
Buvim shirin kulchani,  
Qo'linga ilk bor tutgan.

Erkalab, boshim silab,  
Alla aytib uxlatgan.  
Mehribon buvijonim,  
Tunlari ertak aytgan.

Qalbinning ovunchog'i,  
Buvijon, yuzga kiring.

Menga doim keraksiz,  
Baxtinga omon bo'ling.

2011-yil

### **USTOZ**

Olamni o'rgatdingiz,  
Berib bizlarga ta'lim.  
Ona yurtni tanidim,  
Siz tufayli, muallim.

Mehr berib chin dildan,  
Qo'lga tutdingiz kitob.  
Ko'nglimizni yoritdi,  
Yuzingizdagi oftob.

Bildim ilm neligin,  
Ko'rdim bu keng dunyoni.  
Sizga ming bor tashakkur,  
O'rgatdingiz imloni.

2011-yil

### **DADAJON**

Bayramda dadajonim,  
Zo'r archa olib keldi.  
Yangi yiling bilan, deb,  
Bir dunyo sovg'a berdi.

Sovg'alarning ichida,  
Bor edi kitob, daftar.  
Rahmat dedim jilmayib,  
Sevinchim osmon qadar.

Dadajon, baxtimizga  
Hamisha xushvaqt bo'ling.

Bayramlarda har safar,  
Ko'proq sovg'alar bering.

2011-yil

### **LOLA**

Tog' bag'rida o'saman,  
Chuchmomaga o'rtoqman.  
Do'stlarim ham juda ko'p,  
Axir qizil lolaman.

Meni uzmang, bolalar,  
Uvolimga qolasiz.  
Agar sabr qilsangiz,  
Chiroyimni ko'rasiz.

Men tog'ning erkasiman,  
Libosim olov rangda.  
Bulbullar yo'qlab kelar,  
Bizlarni erta tongda.

Bahor keldi, bolalar,  
Qachon toqqa kelasiz?  
Kelsangiz gar chinakam  
Go'zallikni ko'rasiz.

2011-yil

### **ERK SHAMOLI**

Esmoqda erk shamoli,  
Yurtimning osmonida.  
Qaldirg'och in qurmoqda,  
Bobomning ayvonida.

Demak, tinchlik boshlangan,  
Vatan urushdan xoli.



Bekorga esmaydi-ku,  
Axir, erkning shamoli!

Do'stlar, bayram muborak,  
O'pingiz bayrog'imiz.  
Qaldirg'och bilan to'lsin,  
Kichkina ayvonimiz.

2011-yil

### ONA VATAN


Ona Vatan, jonim Vatan,  
Ayt, sen uchun ne qilay?  
Qaddimni baland tutib,  
Sha'ningga she'rlar bitay.

Gul ekay ostonamga,  
Bir ko'chat maktabimga.  
Aytgil, do'st bo'lamizmi,  
Bog' qilsam qishlog'imga?

Ko'chani tozalayman,  
Birorta xas qoldirmay.  
Senga do'st bo'lish uchun,  
Kitob o'qiyman tinmay.

Vatan! Yagona do'stim!  
Qo'lingdan tutsam edi.  
Senga teng bo'lish uchun,  
Tezda bo'y cho'zsam edi.

2011-yil



## **ONA YURT O'G'LONI**

Bolaligim oqib bormoqda,  
Qishlog'imning anhorlarida.  
Orzularim olov yoqmoqda,  
Yuragimning o'choqlarida.

Oq qog'ozga chizaman surat,  
Goho ustoz, goho onamni.  
Nimagadir tasvirlab bo'lmas,  
Butunicha ulkan Vatanni.

Yuguraman quyosh bilan teng,  
Goho yerda ko'rib samoni.  
Kuchli bo'lib o'rganay bilim,  
Axir biz-ku yurtning o'g'loni.

2011-yil

## **QISH**

Pag'a-pag'a osmondan,  
Qor ham yog'a boshladi.  
Olamni oppoq rangga  
Tezda bo'yab tashladi.

Bolalar xursand bo'lib,  
Qor bo'ronlar o'ynashdi.  
Qorbobolar yasashib,  
Rosa quv nab yayrashdi.

2011-yil

## SHIFOKOR

Agarda og'rib qolsam,  
Davolaydi shifokor.  
Ukol qilib ba'zida,  
U menga berar ozor.

Qani ayting, bu ishdan,  
Biroz xafa bo'laymi?  
Dod solib shifokorning  
Ta'zirini beraymi?

Dori-darmon bersa-ku,  
Ko'nglim xotirjam bo'lar.  
Ukoldan og'iz ochib,  
Hafsalamni pir qilar.

Har gal shifoxonaga,  
Zo'rg'a oyoq qo'yaman.  
Ukol qilmasangiz ham,  
Qo'rquvdan sog'ayaman.

2011-yil

## KUZ

Mana, oltin kuz keldi  
Daraxtlar to'kib bargin.  
Yomg'ir esa tinmasdan,  
Yog'ib beradi tag'in.

Kuz ham o'zgacha fasl  
Mevalar g'arq pishadi.  
Bog'bonlar mevalarni  
Terishga shoshishadi.

Oppoq ochilar paxta,  
Ko'kka intilar xirmon.  
Mehnatin mukofotin,  
Oladi bobodehqon.

Qizdirar so'nggi oftob,  
Yaproqlarning yuzini.  
Shamol supurar asta,  
Xazonlarning izini.

2011-yil

## **BOLALAR**

Vatanning gul-lolasi,  
Go'yoki tong shu'lasi,  
Beg'ubor shalolasi,  
Jajjigina bolalar.

Ona yurtning yuragi,  
Kelajagi tirtgagi,  
Kuchga to'lsin bilagi,  
Jajjigina bolalar.

Onalarning suyanchi,  
Keksayganda tayanchi,  
Ular tongdek beg'ubor,  
Qalbi qaynoq bolalar.

2011-yil

## OMAD

Omad kelsa insonga,  
Yurishar har ishlari.  
Gar bari qo'ldan ketsa,  
Yuz burar tanishlari.

Birgina istakni deb,  
Yelib yugurar inson.  
Omading ketsa do'sting,  
Bermaydi bir burda non.

Imkoning bo'lsa, do'stim,  
Yo'qsillar boshin sila.  
Borki inson zotiga,  
Faqat yaxshilik tila.

Niyati ezgu inson,  
Duch kelmas yomonlarga.  
Boshdagi ko'rgilikni  
Ag'darmas insonlarga.

Bejizga kirmas tikon,  
Avaylab bos qadaming.  
Buni hayot deydilar,  
Kelavermas omading.

Duch kelsang to'siqlarga,  
Qilgin-da biroz sabr.  
Yaxshilik qil barchaga,  
Topasan bir kun qadr.

2012-yil

## BAHOR

Bahor keldi elimga,  
Nur taratar dilimga.  
Maysalarni yashnatib,  
Sho'x qushlarni sayratib.

Mayin esib shabada,  
Kurtaklarni uyg'otar.  
Bulut kelib bir zumda,  
Moviy ko'kni yig'latar.

Yetti og'a – kamalak,  
Paydo bo'lar osmonda.  
Sumalaklar pishadi,  
Bahorda biz tomonda.

Bahordan darak berib,  
Boychechaklar ochilar.  
Parvozdagi sho'x qushlar,  
Bor ovozda chug'urlar.

Mittigina qaldirg'och,  
Ayvonga in quradi.  
Bo'y ko'rsatib maysalar,  
Quyoshga yuz buradi.

Bahor ajoyib fasl,  
Barchamizga yoqadi.  
Tog' qo'ynida lolalar,  
Chiroyini ochadi.

2012-yil

## QISHLOG'IM

Qishlog'imiz chetida  
Katta bir soy oqadi.  
Qishlog'imiz ahliga  
Bu soy juda yoqadi.

Soy chetida katta bog',  
Ikki yoni mevazor.  
Anjir, o'rik, shaftoli,  
Tilni yoradi boli.

Uzumlarning sarasi  
Yetiladi shu yerda.  
Qachon kelar ekan yoz,  
Nigohimiz shu bog'da.

Mevalarning pishishin  
Do'stlar bilan kutamiz.  
Soy suvida cho'milib,  
Mevasiga to'yamiz.

2012-yil

## KUCHUGIM

Kuchugim bor, bo'yni oq,  
Sakrab o'ynaydi, quvnoq.  
Sezib qolsa sharpani,  
Uyg'otadi hammani.

Qo'riqlar ostonamiz,  
Rad etmas hech so'zimiz.  
Chaqirsam chopib kelar,  
Qarshimda yeldek yelar.

Kaftin qo'yib qo'limga,  
Mehr bilan qaraydi.  
Bilmayman uni menga,  
Qanday tuyg'u bog'laydi.

Qayga borsam ergashib,  
Ortimdan hech qolmaydi.  
Hattoki do'stlarimni  
Begona deb bilmaydi.

2012-yil

### **ONA**

Onajon, dunyo ichra  
Siz men uchun tanhosiz.  
Mehringiz misli dengiz,  
Go'yo sirli dunyosiz.

Ranjitmayman hech qachon,  
E'zozlayman men sizni.  
Avaylab, ko'zga surtib,  
Ulg'aytirdingiz bizni.

Onajonim, istagim:  
Baxtinga omon bo'ling.  
Rohatimizni ko'rib,  
Iloyo yuzga kiring.

2012-yil



## ZULFIYAXONIMGA

Yozgan har bir satringiz  
Dilimga xush yoqmoqda.  
Yetarmi menda jur'at  
Siz kabi she'r bitmoqqa?

Yuragimda kun sayin  
O'sib borar bir tilak.  
Nomingiz madh etmoqqa  
Talpinadi bu yurak.

Dilimizda yashaysiz,  
Tildan qo'ymaymiz sira.  
Eng go'zal navolarda,  
Yashaysiz vatan ichra.

Yod etib har satringiz,  
Baxtga to'lar har onim.  
O'zbek ayoli timsoli,  
Buyuk Zulfiyaxonim.

2012-yil

## FUTBOL

Men sevgan sport turi,  
To'g'risin aytsam: futbol.  
Raqib darvozasiga  
Ursaydim hamisha gol.

"Paxtakor"ga muxlisman,  
"Bunyodkor" ham yoqadi.  
Ularning har o'yini,  
Qalbinga o't soladi.

Katta bo'lsam bir kuni,  
Maydonga yo'l olaman.  
Shunda raqib tomonga,  
Albatta gol solaman.

2012-yil

### **KITOB**

Go'yo har bir onimda  
Kitobim mening do'stim.  
Keng hayot maydonida  
U bilan ochiq yo'lim.

Sevib o'qiyman uni,  
Oltin teng har satri.  
Qani barcha bolaga,  
Bilinsa uning qadri.

Bobolarning eng dono  
O'g'itlari bor unda.  
Qo'ldan qo'ymayman uni,  
Hayot ma'nosi shunda.

2012-yil

### **NAVRO'Z**

Bahorning o'zgacha xislatlari bor,  
Qarang, doshqozonda qaynar sumalak.  
Dillarni xushlaydi Navro'z ayyomi,  
Momolar aytadi bir shirin tilak.

Shodlikka to'ladi butun bir olam,  
O'zbegim, Navro'zing muborak bo'lsin!  
Sumalak qaynasin har bir qozonda,  
Atrofdan rango-rang maysalar unsin.

Yoshlari qadrlab keksalarini,  
Bahor ayyomini keng nishonlasin.  
O'zbekning nomini har dam ulug'lab,  
Tinch-totuv kuniga shukrona qilsin!

2013-yil

## JANNATMAKON YURT

Kindik qonim to'kilgan tuproq,  
Go'yo oltin zarlarga konim.  
Barchaga teng ochiq quchog'i.  
Ona yurtim, jannatmakonim!

Bulbullari sayraydi mudom,  
Lolalari yashnaydi tog'da.  
Bahor, kuzda tilni yorgudek  
Mevalari pishadi bog'da.

Senda baxtli yashaydi har on,  
Qadrin sezib, barcha keksa, yosh.  
Yulduzlari to'la osmonin  
Kunduzlari tark etmas quyosh.

Senga qurbon jon-u, jahonim.  
Ona yurtim, jannatmakonim!

2013-yil

## TABIAT TASVIRI

O'ta mag'rur burgutlar,  
Qoyatoshlar serviqor.  
Chashmalari sho'x-shodon,  
Sukut saqlar changalzor.

Tog' qo'ynida lolalar,  
Go'zallikdan bahs o'ynar.

Yorib chiqib tog' ko'ksin,  
Shoshih oqar jilg'alar.

Daryo sohili namchil,  
Oqqush xushhol suzadi.  
O'tkir nigohli bo'ri,  
O'rmon bo'ylab kezadi.

Ekinzorlar unumdor,  
Bog'lar gulga burkangan.  
Bulutning go'zal aksi,  
Suv yuziga tashlangan.

Qayga qaramay uyg'oq  
Lahzalar bo'y ko'rsatar.  
Taqdirning charxpalagi,  
Yelkasini silkitar.

Goh oy chiqar, goh quyosh,  
Osmon goho qora, oq.  
Hayot o'zi aslida,  
Turfa ranglarga mushtoq.

Qushlar parvozidadir,  
Yuksalishning bor siri.  
Ko'zga tushgan neki bor,  
Tabiatning tasviri.

2014-yil

## UMID

Bahor bizni tashlab ketsa-da,  
Undan xafa bo'lmayman hargiz.  
Doim uni kutaman ilhaq,  
Qaldirg'ochlar, qaytasizmi siz?

Ko'chalarni supurar shamol,  
To'kiladi sariq xazonlar.  
Yashil maysa qaytadi balki,  
Javob izlar yana savollar.

Qayga ketib borar, bilmadim,  
Daraxtlardan to'kilgan yaproq.  
Qurib yotar suv to'la anhor,  
Maysalarni tutadi titroq.

2015-yil

## FASLLAR ALMASHUVI

Yana uzun shamolning qo'li,  
Kirib keldi o'lkamizga kuz.  
Eh bechora, sariq yaproqlar,  
Qarshimizda to'kilasiz siz.

Tuproq uzra bosh qo'yar asta,  
Qavjiragan nihollar unsiz.  
Ovoz bermay anhor bo'yida,  
Nafas olar kichkina ildiz.

Erkalatib ohista shamol,  
O'tib ketar sochimni silab.  
Kuzni quvib kelayotir qish,  
Daraxtlarni oq rangga bo'yab.

Eshiklarni tebratar shamol,  
Quturadi bo'ron ham shartta.  
Ko'kdan yana yog'ar tomchilar,  
Bulutlarning qalbi shikasta.

Yulduzlarni quchib, erkalab,  
Oppoq bulut qaygadir ketar.  
Tutib oyning erinchog'ligi,  
Ko'zlarini uyqu elitar.

Tuman shoshib eshik qoqadi,  
Tarqalmaydi samodan g'ubor.  
Qushlarning sho'x ovozi yangrab,  
Balki bir kun qaytadi bahor.

Shunda ayvon peshtoqlarida  
Aylanadi o'nlab qaldirg'och.  
Yaproqlarin uyg'otib asta  
Barg yozadi bizning qayrag'och.

2016-yil

## MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
-----------------	---

### *Hikoyalar*

Doʻstlik.....	4
Yaxshilikni kattalardan oʻrgandim.....	5
Ustoz.....	8
Qarz.....	11

### *Sheʼrlar*

Vatan.....	14
Buvijon.....	14
Ustoz.....	15
Dadajon.....	15
Lola.....	16
Erk shamoli.....	16
Ona vatan.....	17
Ona yurt oʻgʻloni.....	18
Qish.....	18
Shifokor.....	19
Kuz.....	19
Bolalar.....	20
Omad.....	21
Bahor.....	22
Qishlogʻim.....	23
Kuchugim.....	23
Ona.....	24
Zulfiyaxonimga.....	25
Futbol.....	25
Kitob.....	26
Navroʻz.....	26
Jannatmakon yurt.....	27
Tabiat tasviri.....	27
Umid.....	29
Fasllar almashuvi.....	29

**UO'K: 821.512.133**

**KBK: 84(50')7**

**T 71** Toshtemirov, Nazirjon

Orzular kamalagi [Matn] : hikoyalar va she'rlar / N. Toshtemirov /  
– Toshkent : Yangi kitob, 2016. – 32 b.

ISBN 978-9943-4555-2-8

UO'K: 821.512.133

KBK: 84(50')7

**Muharrir: Anvar NAMOZOV**

**Musahhih: Navro'z BEKMURODOV**

**Badiiy muharrir: Firdavs DO'STMATOV**

**Texnik muharrir: Soyib SAFAROV**

Nashriyot lisenziyasi: AI №255, 31.12.2014

Terishga berildi: 04.05.2016-y.

Bosishga ruxsat etildi: 25.05.2016-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108  $\frac{1}{32}$ .

Arial garnituras. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 1.23. Shartli b. t.: 1.68.

Adadi: 500 nusxa.

Buyurtma: № 511.

«Yangi kitob» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

100138, Toshkent shahri Uchtepa tumani

Chilonzor dahasi 13-mavze 45-uy.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI»da chop etildi.  
100200, Toshkent shahar, Radial tor ko'chasi, 10-uy.